

DASTLABKI TERGOVDA SHAXS DAXLSIZLIGI KAFOLATLARI: MAJBURLOV CHORALARI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING DOLZARB MASALALARI**Xafizov Otabek Otamurodovich**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tadqiqotchisi.

e-mail: hafizovotabek@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19744067>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining dastlabki tergov bosqichida prokuror nazoratini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud huquqiy mexanizmlari hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolar kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tergov harakatlari qonuniyligini ta'minlash, inson huquqlarini bevosita cheklovchi protsessual majburlov choralari (ushlab turish, qamoqqa olish) qo'llash va jinoyat ishlari bo'yicha tergov muddatlariga rioya etish jarayonidagi amaliy bo'shliqlar o'rganilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, prokuror nazoratining masofaviy va tezkor shakllarini amaliyotga keng joriy etish, xususan, "Elektron jinoiy ish" tizimida muddat buzilishi xavfi tug'ilganda avtomatik xabar (alert) berish modulini ishga tushirish, tergov muddatini uzaytirish iltimosnomalarini elektron axborot tizimi orqali kiritish hamda ehtiyot choralari sanksiya berishda majburiy tartibda videokonferensaloqadan foydalanish kabi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslantirilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Prokuror nazorati, dastlabki tergov, ichki ishlar organlari, inson huquqlari kafolati, protsessual majburlov choralari, tergov muddatlari, elektron jinoiy ish, videokonferensaloqa, raqamli prokuratura

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы специфические особенности осуществления прокурорского надзора на стадии предварительного расследования органами внутренних дел, существующие правовые механизмы, а также проблемы правоприменительной практики. В ходе исследования были изучены вопросы обеспечения законности следственных действий, применения процессуальных мер принуждения, непосредственно ограничивающих права человека (задержание, заключение под стражу), а также соблюдения сроков расследования по уголовным делам и существующие практические пробелы в этих процессах. По результатам анализа выдвинуты научно обоснованные предложения, направленные на совершенствование законодательства, в том числе широкое внедрение дистанционных и оперативных форм прокурорского надзора, запуск модуля автоматического оповещения (alert) в системе «Электронное уголовное дело» при возникновении риска нарушения сроков, подача ходатайств о продлении сроков расследования через электронную информационную систему, а также обязательное использование видеоконференцсвязи при санкционировании мер пресечения.

Ключевые слова: прокурорский надзор, предварительное расследование, органы внутренних дел, гарантии прав человека, процессуальные меры принуждения, сроки расследования, электронное уголовное дело, видеоконференцсвязь, цифровая прокуратура.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the specific features of prosecutorial supervision at the stage of preliminary investigation conducted by internal affairs bodies, existing legal mechanisms, and challenges in law enforcement practice. The study examines issues related to ensuring the legality of investigative actions, the application of procedural coercive measures that directly restrict human rights (detention, pre-trial detention), as well as compliance with investigation deadlines in criminal cases and the existing practical

gaps in these processes. Based on the findings, scientifically grounded proposals aimed at improving legislation are put forward. These include the broad implementation of remote and onepamuse forms of prosecutorial supervision, the introduction of an automatic alert module within the "Electronic Criminal Case" system to signal risks of deadline violations, the submission of requests for extension of investigation periods through electronic information systems, and the mandatory use of videoconferencing when authorizing preventive measures.

Keywords: prosecutorial supervision, preliminary investigation, internal affairs bodies, guarantees of human rights, procedural coercive measures, investigation deadlines, electronic criminal case, videoconferencing, digital prosecution.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish hamda ularni ishonchli himoya qilish tizimini yaratishdan iboratdir. Jinoyat-protsessual huquqida, xususan, dastlabki tergov bosqichida fuqarolarning huquqlarini ta'minlash eng nozik va murakkab masalalardan biri sanaladi, chunki aynan shu bosqichda shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash bilan bog'liq bo'lgan protsessual majburlov choralari keng qo'llaniladi¹.

Mamlakatimizda jinoyat ishlarining aksariyat qismi, ya'ni qariyb 80 foizdan ortig'i ichki ishlar organlari (IIO) tergov bo'linmalari tomonidan tergov qilinishini inobatga olsak, ushbu idoralar tergovchilarining mas'uliyati naqadar yuqori ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi².

Ichki ishlar organlarining dastlabki tergov faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazorati o'rnini bosib bo'lmaydigan hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prokuror nafaqat jinoyat ta'qibini amalga oshiruvchi, balki tergov jarayonida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan oliy nazoratni olib boruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi³. So'nggi yillarda respublikamizda sud-huquq tizimini isloh qilish doirasida jinoyat ishlarini tergov qilish sifatini oshirish, tergovda xolislik va mantiqiylikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, amaliyotda ichki ishlar organlari tergovchilari tomonidan tergov harakatlarini o'tkazishda qonun talablariga og'ishmay rioya etishni ta'minlash, fuqarolarni asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortish holatlarining oldini olish borasida bir qator yechimini kutayotgan muammolar saqlanib qolmoqda⁴. Dastlabki tergov bosqichida prokuror nazoratining samaradorligini oshirish, uning huquqiy mexanizmlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ichki ishlar organlarining dastlabki tergov bosqichida tergov harakatlarini o'tkazish, protsessual majburlov choralari qo'llash va tergov muddatlariga rioya etish ustidan amalga oshiriladigan prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari, mavjud huquqiy mexanizmlari hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni kompleks yoritishdan iborat. Maqsadga erishish doirasida bir qator o'ziga xos vazifalar belgilab olinadi. Xususan, ichki ishlar organlari tergovchilari tomonidan o'tkaziladigan tintuv, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, yuzlashtirish kabi murakkab tergov harakatlarining

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi

² O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining jinoyatlarni tergov qilish kafedrasini hisobot ma'lumotlari. – T., 2023

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/dastlabki-tergov-va-surishtiruv-ustidan-sud-nazoratini-kuchaytirishning-protseual-huquqiy-jihatlari/viewer>

⁴ Rahmatullayev A. Dastlabki tergov bosqichida inson huquqlarini ta'minlash muammolari // "Huquq va burch" jurnali, 2021, №4. – B. 22-25.

qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

Shuningdek, shaxsning erkinlik huquqini bevosita cheklovchi protsessual majburlov choralari – ushlab turish, qamoqqa olish, uy qamog‘i kabi ehtiyot choralari qo‘llashda prokuror sanksiyasining o‘rni va bu borada inson huquqlari buzilishining oldini olish kafolatlari o‘rganiladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha tergov muddatlariga qat‘iy rioya etilishi jinoyat protsessining tezkorligi va odilligini ta‘minlashning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, bu borada prokurorning muddatlarni nazorat qilish, asossiz cho‘zilishlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha vakolatlari doirasi tizimli ravishda tadqiq etiladi. Ushbu yo‘nalishdagi xalqaro standartlar va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bilan milliy qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish orqali, amaldagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqotning bosh maqsadlaridan sanaladi.

Ilmiy muammo. Jinoyat-protsessual huquqi fanida va huquqni qo‘llash amaliyotida prokuror nazoratining umumiy masalalari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan ichki ishlar organlarining dastlabki tergovda muddatlarning asossiz cho‘zilishi va majburlov choralari qo‘llashdagi xatoliklarni o‘z vaqtida, proaktiv tarzda aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarida jiddiy bo‘shliqlar mavjud. Amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat hollarda prokuror nazorati qonunbuzilish holati sodir bo‘lib, fuqaroning huquqlari poymol etilganidan so‘nggina, ya‘ni reaktiv xarakterda ishga tushmoqda.

Tergov muddatlarining asossiz ravishda uzaytirilishi muammosi hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tergovchilarning ish yurituvda bir vaqtning o‘zida ko‘plab jinoyat ishlarining mavjudligi, ya‘ni ish yuklamasining yuqoriligi sababli tergov harakatlari o‘z vaqtida o‘tkazilmaydi, bu esa dalillarning yo‘qolishiga va jinoyatni issiq izidan fosh etish imkoniyatining pasayishiga olib keladi. Ushbu jarayonda prokuror tomonidan muddatlar ustidan samarali va raqamlashtirilgan nazoratning to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi ilmiy muammo sifatida e‘tiborni tortadi. Garchi "Elektron jinoiy ish" yagona axborot tizimi amaliyotga joriy etilgan bo‘lsa-da, uning doirasida prokurorning dastlabki tergov ustidan onlayn, masofaviy nazoratni to‘laqonli amalga oshirish imkoniyatlari huquqiy va texnik jihatdan oxiriga yetkazilmagan.

Boshqa bir yirik ilmiy muammo – protsessual majburlov choralari qo‘llashda qonuniyligni ta‘minlashdagi yondashuvlardir. Amaliyotda ehtiyot chorasini sifatida qamoqqa olish yoxud ushlab turish jarayonlarida yetarli asoslar mavjud bo‘lmasa-da, tergovchilar tomonidan ushbu choralarni qo‘llashga moyillik kuchliligicha qolmoqda. Prokurorlar tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomalarni sudga kiritishga rozilik berish (sanksiya berish) jarayoni ko‘pincha yuzaki xarakterga ega bo‘lib, tergovchining xulosalari tanqidiy tahlil qilinmasdan ma‘qullanayotgan holatlar uchramoqda. Shuningdek, qonunchilikda prokurorning majburlov choralari va tergov muddatlari ustidan nazoratni amalga oshirishdagi javobgarligi aniq chegaralanmaganligi qonun normalarining turli xil talqin qilinishiga va amaliyotda nomutanosibliklarga sabab bo‘lmoqda. Xulosa qilib aytganda, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan prokuror nazorati vositalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz ishlashini ta‘minlovchi aniq mexanizmlarning yetishmasligi, sohani raqamlashtirish darajasining qoniqarsizligi ushbu tadqiqot doirasida chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan asosiy ilmiy bo‘shliq hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda asosiy ma‘lumotlar bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi, xususan, qonuniyligni ta‘minlash va muddatlarni belgilashni tartibga soluvchi normalar olingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ehtiyot choralarini qo'llash amaliyotiga doir tushuntirishlari, Ichki ishlar vazirligi (IIO) hamda Bosh prokuraturaning dastlabki tergovni tashkil etish va nazorat qilish borasidagi ochiq ma'lumotlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishga oid Prezident qarorlari va farmonlari tadqiqot manbasi bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot jarayonida bir qator umumilmiy va maxsus yuridik usullardan foydalanildi. Xususan: Mantiqiy-huquqiy tahlil usuli orqali ichki ishlar organlari tergovchilari tomonidan amalga oshiriladigan tergov harakatlari (tintuv, olib qo'yish, ko'zdan kechirish) qonuniyligini ta'minlovchi normativ baza o'rganilib, Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) tegishli moddalarida saqlanib qolayotgan ziddiyatlar tahlil qilindi.

Tizimli tahlil usuli yordamida protsessual majburlov choralarini (ushlab turish, qamoqqa olish) qo'llash jarayoni hamda JPKning 351-moddasida belgilangan dastlabki tergov muddatlarini nazorat qilish mexanizmlari o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida baholandi⁵.

Amaliyot tahlili (Case study) usuli orqali tergov amaliyotida ko'p uchraydigan tipik xatolar, jumladan, tergov muddatlarining obyektiv sabablarsiz cho'zilishi va ashyoviy dalillarni yig'ishdagi protsessual kamchiliklar umumlashtirilib, prokuror nazoratining ushbu xatolarni bartaraf etishdagi ta'siri o'rganildi⁶.

Tergov harakatlari qonuniyligini ta'minlashdagi holat: Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarining dastlabki tergov bosqichida prokurorlar tomonidan eng ko'p aniqlanadigan protsessual qoidabuzarliklar asosan dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayonida yuz beradi⁷.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 382-moddasiga muvofiq, prokuror tergovchining qonunga xilof va asossiz qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo'lsa-da, amaliyotda so'roq qilish tartibini buzish, xolislarini jalb qilish qoidalariga rioya etmaslik yoki tintuv va olib qo'yish harakatlarini o'tkazishda bayonnomalarni noto'g'ri rasmiylashtirish holatlari bo'yicha qoidabuzarliklar yuqoriligicha qolmoqda⁸. Bu esa prokuror nazoratining doimiy ravishda bevosita tergov jarayonining o'zida emas, balki hujjatlar rasmiylashtirilib bo'lingandan so'ng amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Protsessual majburlov choralarini va tergov muddatlari: Protsessual majburlov choralarini orasida eng og'iri hisoblangan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash ustidan prokuror nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka ko'ra, qamoqqa olish yoxud uy qamog'i tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llash iltimosnomasi bilan sudga murojaat qilish faqatgina prokurorning roziligi (sanksiyasi) asosida amalga oshiriladi⁹. Biroq, natijalar shuni ko'rsatadiki, prokurorlar aksariyat hollarda tergovchining xulosasiga tayanib, shaxsni izolyatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil ehtiyot choralarini (garov, munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat) qo'llash imkoniyatlarini yetarlicha baholamayaptilar.

Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha tergov muddatlarining asossiz uzaytirilishi ustidan nazorat tahlil qilinganda, dastlabki tergov muddatlari (JPK 351-moddasi) asosli sabablarsiz

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasi (Dastlabki tergov muddatlari) hamda 221-226-moddalari (Ushlab turish)

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori SUDGA QADAR ISH YURITISH BOSQICHIDA QAMOQQA OLIH TARZIDAGI EHTIYOT CHORASINING SUDLAR TOMONIDAN QO'LLANILISHI TO'G'RISIDA <https://lex.uz/docs/-1595235>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari (Tergov ustidan nazorat boshqarmasi yo'nalishidagi sharhlar) // www.prokuratura.uz.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 382-moddasi (Prokurorning vakolatlari)

⁹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 236-moddasi (Ehtiyot choralarini tanlash va qo'llash tartibi).

cho'zilishi natijasida fuqarolarning protsessual maqomi uzoq vaqt noaniq qolayotgani, bu esa o'z navbatida fuqarolarning sarson bo'lishiga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchining pasayishiga olib kelayotgani aniqlandi¹⁰.

Kuzatilgan tendensiya: So'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari doirasida sud-tergov faoliyatida inson huquqlarini kafolatlash kuchaytirilgani, "Elektron jinoiy ish" tizimi joriy etilgani sababli, prokuror nazorati kuchaytirilgan hududlarda dastlabki tergov sifati nisbatan oshgani, asossiz ushlab turishlar soni ma'lum darajada qisqargani kuzatilmoqda.

Natijalar muhokamasi: Nima uchun aynan muddatlar va majburlor choralari bo'yicha qonunbuzilishlar tizimli ravishda uchrab turadi? Ushbu savolga javob izlash doirasida bir nechta omillar aniqlandi. Birinchidan, inson omili: tergovchilarning ish yuklamasi o'ta yuqoriligi sababli protsessual muddatlarga jismonan ulgurmaslik holatlari yuzaga keladi¹¹. Ikkinchidan, idoraviy nazoratning o'ziga xosligi: IIO tizimida qotib qolgan "jinoiyatni fosh etish foizi" tushunchasi oqibatida qonuniylikdan ko'ra natijaviylik ustuvor bo'lib qolmoqda. Uchinchidan, prokurorlarning masofaviy va tezkor nazoratni amalga oshirishi uchun to'laqonli raqamli integratsiyaning yakuniga yetmaganligidir.

Amaldagi huquqiy mexanizmlar dastlabki tergov bosqichida qonuniylikni ta'minlash uchun nazariy jihatdan yetarli poydevor yaratsa-da, amaliyotda prokuror nazorati asosan "qog'ozdagi" hujjatlarni tekshirish bilan cheklanib qolmoqda. Prokuror nazoratini jazolovchi mexanizmdan xatolarning oldini oluvchi (preventiv) mexanizmga aylantirish uchun amaldagi instrumentlarni raqamli texnologiyalar yordamida yanada kuchaytirish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, IIO dastlabki tergov faoliyati ustidan prokuror nazorati ta'sirchanligini oshirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasiga (dastlabki tergov muddatlari) o'zgartirish kiritib, tergov muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnomalar elektron axborot tizimi orqali muddat tugashidan kamida besh sutka oldin prokurorga yuborilishini qat'iy belgilash lozim¹². Bu prokurorga muddat cho'zilishi asosligini xolisona tekshirish uchun yetarli vaqt beradi.

"Elektron jinoiy ish" dasturi doirasida "Prokuror nazorati bloki"ni takomillashtirish. Unda tergov harakatlari qonuniyligi, ayniqsa ushlab turishning 48 soatlik muddati qat'iy hisoblanib, muddat buzilishi xavfi tug'ilganda tizim prokurorga avtomatik tarzda xabar (alert) yuborishini yo'lga qo'yish zarur¹³.

Prokuror tomonidan qamoqqa olish va uy qamog'i ehtiyot choralariga sanksiya berishdan oldin tergovchi tomonidan taqdim etilgan dalillarni tekshirish maqsadida, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini majburiy tartibda videokonferensaloqa orqali so'roq qilish amaliyotini qonunchilikka kiritish tavsiya etiladi¹⁴.

Ushbu choralar ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalarida qonuniylikni so'zsiz ta'minlashga va prokuror nazoratining chinakam amaliy ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 18.04.2017 yildagi PQ-2896-son

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 18.04.2017 yildagi PQ-2898-son

¹² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan Qonunchilik palatasiga kiritilgan loyihalar sharhi (muddatlarni elektron tartibga solish yuzasidan amaliy taklif sifatida ishlab chiqildi)

¹³ Ushbu taklif xorijiy davlatlar (xususan, Janubiy Koreyaning KICS axborot tizimi) jinoyat ishlari reyestrini yuritish tajribasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

¹⁴ inoyat ishlari yurituvida videokonferensaloqa tizimidan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-1-moddasi bilan tartibga solingan bo'lib, uning qamrovini kengaytirish haqidagi amaliy taklif.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 236-moddasi (Ehtiyot choralarini tanlash va qo'llash tartibi).
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasi (Dastlabki tergov muddatlari) hamda 221-226-moddalari (Ushlab turish).
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 382-moddasi (Prokurorning vakolatlari).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2898-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-1595235>
8. Rahmatullayev A. Dastlabki tergov bosqichida inson huquqlarini ta'minlash muammolari // "Huquq va burch" jurnali, 2021, №4. – B. 22-25.
9. Dastlabki tergov va surishtiruv ustidan sud nazoratini kuchaytirishning protsesual huquqiy jihatlari (Ilmiy maqola). Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/dastlabki-tergov-va-surishtiruv-ustidan-sud-nazoratini-kuchaytirishning-protsesual-huquqiy-jihatlari/viewer>
10. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining jinoyatlarni tergov qilish kafedrasini hisobot ma'lumotlari. – T., 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari (Tergov ustidan nazorat boshqarmasi yo'nalishidagi sharhlar) // www.prokuratura.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan Qonunchilik palatasiga kiritilgan loyihalar sharhi (muddatlarni elektron tartibga solish yuzasidan amaliy taklif sifatida ishlab chiqildi).
13. Jinoyat ishlari yurituvida videokonferensaloqa tizimidan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-1-moddasi bilan tartibga solingan bo'lib, uning qamrovini kengaytirish haqidagi amaliy taklif.
14. Xorijiy davlatlar (xususan, Janubiy Koreyaning KICS axborot tizimi) jinoyat ishlari reyestrini yuritish tajribasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan taklif.